

**K-POP SANOATINING JANUBIY KOREYA IQTISODIYOTI VA TURIZMIDA
TUTGAN O'RNI****Narzullayeva Gulsanam O'tkir qizi**

“Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya” universitetining “Xalqaro iqtisodiyot va menejment”

fakulteti 0-9a-24 guruhi talabasi

E-mail: gulsanamnarzullayeva6@gmail.com**Shomurodova Charos Otabek qizi**

“Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya” universitetining “Xalqaro iqtisodiyot va menejment”

fakulteti 0-9a-24 guruhi talabasi

E-mail: charosshomurodova4@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15593016>

Annotatsiya. Quyida keltirilgan maqolada hozirda rivojlanib ulgurgan K-pop sanoatining Janubiy Koreya iqtisodiyoti va turizmiga qay darajada ta'sir qilishi tahlil qilingan va bu ta'sirni o'rganish jarayonida uning kuchli va zaif tomonlari, shu bilan birga mavjud imkoniyatlari va bu soha yuzlashishi kutilayotgan tahdidlari asos qilib olingan. Maqolada K-popning iqtisodiyotga qo'shgan hissasi albom savdolari, konsertlar va brend hamkorliklari orqali milliy daromadlarning oshishi, turizm sohasida esa Koreya madaniyatiga qiziqishning kuchayishi shaklida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sanoatning haddan tashqari rivojlanishi boshqa sohalarga investitsiyalarning kamayishiga olib kelishi, global qiziqishning pasayishi kabi muammolar ham muhokama qilinadi. Maqolada K-pop sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ham keltirilgan bo'lib, ular orasida atrof-muhitni hisobga olgan ishlab chiqarish usullari, turizmni mamlakat bo'ylab tarqatish kabi g'oyalar muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Janubiy Koreya, K-pop sanoati, iqtisodiyot, turizm, K-pop guruhlari, iqtisodiy foyda, sayyohlar, albomlar, musiqiy chiqish, HYBE, BTS, SWOT tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние стремительно развивающейся индустрии К-поп на экономику и туризм Южной Кореи. В ходе исследования рассматриваются сильные и слабые стороны этой отрасли, а также существующие возможности и потенциальные угрозы. Отмечается, что К-поп вносит вклад в экономику за счет продаж альбомов, концертов и партнерства с брендами, что увеличивает национальный доход, одновременно усиливая интерес к корейской культуре через туризм. Однако в статье также обсуждаются проблемы, такие как чрезмерное развитие индустрии, ведущее к сокращению инвестиций в другие сектора, и возможное снижение глобального интереса. Кроме того, предлагаются рекомендации по дальнейшему развитию К-поп, включая экологически безопасные методы производства и стратегии по равномерному распределению туристических потоков по всей стране.

Ключевые слова: Южная Корея, индустрия К-поп, экономика, туризм, К-поп группы, экономическая выгода, туристы, альбомы, музыкальные релизы, HYBE, BTS, SWOT-анализ.

Abstract. The article analyzes the significant impact of the rapidly developing K-pop industry on South Korea's economy and tourism. It examines the industry's strengths and weaknesses, as well as existing opportunities and potential threats it may face. The study highlights how K-pop contributes to the economy through album sales, concerts, and brand partnerships, which boost national income, while also increasing global interest in Korean culture through tourism. However, the article also discusses challenges, such as the excessive growth of the industry leading to reduced investments in other sectors and the potential decline

of global interest. Additionally, it presents recommendations for further developing the K-pop industry, including environmentally friendly production methods and strategies to distribute tourism benefits across the country.

Keywords: South Korea, K-pop industry, economy, tourism, K-pop groups, economic benefits, tourists, albums, music releases, HYBE, BTS, SWOT analysis.

KIRISH

Hozirgi kunda yoshlar orasida o'zining zamonaviy musiqiy ohanglari, jo'shqin harakatlarga asoslangan raqslari va dunyo tan olgan san'atkorlari (IDOL, pop yulduzlar) bilan mashhur bo'lgan k-pop sanoati butun jahonda turli shov-shuvlarga sabab bo'lmoqda. Bu tushunchaning asl ma'nosiga yuzlanadigan bo'lsak, K-pop (Korean pop) Janubiy Koreyaning 1990-yillarda shakllana boshlagan g'arb popi, hip-hop, elektronika va an'anaviy koreys ohanglariga asoslangan musiqiy janri hisoblanadi.[1] Ushbu "kashfiyot" orqali Yaqin Sharq mamlakatlarining (Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya) musiqiy ma'daniyatlarini jahonga yoyildi. XXI asrning ilk yillarida k-pop sanoati o'zining ilk mashhur guruhlari, xususan Wonder Girls, BIGBANG, Girls' Generation mualliflik qiladigan "san'at asarlari" ni musiqa olamiga taqdim eta boshlaydi. Bu muvaffaqiyatga erishishda ijtimoiy tarmoqlar ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa sanoat kengayib yangidan-yangi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan yulduzlar jamoalari G'arb mamlakatlariga ham qadam qo'yishadi. Bugungi globallashuv davrida BTS, Blackpink, Stray Kids kabi k-pop sanoatining "akulalari" dan xabardor bo'lmagan inson bo'lmasa kerak, hech bo'lmaganda ular ijtimoiy tarmoqlar orqali bu kabi yulduzlarning musiqiy faoliyati bilan yaqindan tanishishgan. Ayni paytda k-pop sanoatining faol muxlislari soni 150 mln nafardan 200mln nafargachani tashkil qiladi.[2] Bundan tashqari, har bir k-pop muxlislari o'z sevimli yulduzlarining musiqiy chiqishlariga dunyoning har bir burchagidan Janubiy Koreyaga tashrif buyurishadi. Shubhasiz, bu davlat iqtisodiyoti va turizmiga sezilarli darajada foyda keltiradi. Koreya davlati byudjetining 11 trillion koreys von (won) ulushi k-pop sanoatiga to'g'ri keladi.[3] Koreya turizmining 60 % esa aynan ushbu industriyaning hissasi sanaladi.[4] Ushbu sanoat hozirga kelib global fenomenga aylanib ulgurdi va shu bilan birga koreys xalq ma'daniyati, tili va milliy taomlarini ham omma orasida keng miqyosda tanitdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

K-pop industriyasining Janubiy Koreya iqtisodiyotiga va turizmiga qo'shayotgan hissasi to'g'risida dunyo olimlari tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday izlanishlar natijasida butun musiqa hamjamiyatiga ushbu mavzu haqida yetarlicha ma'lumot olishga yo'l ochilmoqda. Quyida ushbu mavzuga oid bir nechta maqolalarning tahlili keltirib o'tilgan:

Ko'plab K-pop to'g'risida ilmiy tadqiqotlar o'tkazgan olim Jinheon Park o'zining maqolalarida K-pop eksporti, albom savdolari, konsertlar va brend hamkorliklari orqali milliy daromadlarni oshirib, Koreya musiqa sanoatini dunyoda 7-o'ringa ko'targani va "Big 4" kompaniyalari (HYBE, SM, YG, JYP) daromad va operatsion foydaning keskin o'sishiga erishganligi (masalan, YG Entertainment 2023-yilda operatsion foydasi 461.5% ga oshgan) haqida ma'lumot berib o'tgan.[5]

Patrick A. Messerlin va Wonkyu Shin tomonidan yozilgan maqolada nafaqat k-popning global muvaffaqiyati va iqtisodiy ko'rsatkichlari, balki k-popning muvaffaqiyatga erishishining asosiy sabablarini ham keltirib o'tilgan.[6] Bu sabablar:

1. Internet infratuzilmasi: Koreya hukumatining erta va kuchli internet infratuzilmasi K-pop kompaniyalariga global auditoriyaga yetish imkoniyatini berdi.

2. Global bozorga chiqish: Koreyada onlayn narxlar boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha past, shu sababli K-pop kompaniyalari daromad oshirish uchun tezda global bozorga chiqdi.

Yana bir maqola mualliflari Ingyu Oh va Hyo- Jung Lee o'z ilmiy ishlarida Koreya hukumati Hallyu (Koreya to'liqini) ni madaniy eksport sifatida rag'batlantirish uchun byudjetni keskin oshirganligi (2013-yilda 319 milliard von) biroq, byudjetning ko'p qismi an'anaviy madaniyat (masalan, gukak) va turizmga sarflanishi natijasida K-pop chetda qolayotganligi to'g'risida ta'kidlab o'tishgan.[7]

METODOLOGIYA


Ushbu maqoladagi barcha statistik ma'lumotlar "Ministry of Culture, Sports and Tourism Republic of Korea", "visitKorea", KOCCA (Korean Creative Content Agency) va shu kabi web-sahifalardan olingan. Bundan tashqari k-pop sanoatining Janubiy Koreya iqtisodiyoti va turizmiga ta'siri SWOT analizi orqali tahlil qilindi. Shu bilan birga maqolada butunjahon olimlari tadqiqotlarining natijasi ham inobatga olingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

K-pop sanoatining Janubiy Koreya iqtisodiyoti va turizmiga ta'sirini SWOT analizi orqali o'rganib chiqadigan bo'lsak:

Strengths (Kuchli tomonlari):

- Birinchi navbatda, K-pop yulduzlarining musiqiy albomlariga bo'lgan talab nafaqat Janubiy Koreyada ,balki butun dunyo mamlakatlarida ham juda yuqori. Bu turdagi albomlarning sotuvi Koreya iqtisodiyotiga milliardlab dollar foyda olib keladi.2022-yilda Koreya musiqa sanoati eksporti \$1.4 mlrdni tashkil etib, unda albomlarning ulushi \$500mln dan ortiq hisoblanadi. Shu bilan birga, 2023-yilda albom sotuvi tarixdagi eng yuqori ko'rsatkichga erishib 120 mln nusxada sotilgan.[8]



Grafik [9]

- Bundan tashqari, har yili K-pop ning mashhur guruhlari musiqiy chiqishlariga tashrif buyuruvchi muxlislar Koreya turizmining asosi hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, 2023-yilda Janubiy Koreyaga tashrif buyurgan sayyohlarning 12% qismi, ya'ni taxminan 1,5 mln kishi K-pop tufayli kelgan.

JANUBIY KOREYAGA TASHRIF BUYURUVCHILAR SONI (2023-YIL)

■ K-pop ■ K-drama ■ Milliy taomlar ■ K-beauty va moda ■ Madaniy meros ■ Tibbiyot ■ Boshqalar




Diagramma [10]

• Birgina albomlar orqali davlat hududida har bir mamlakatning asosiy muammolaridan biri bo'lgan ishsizlik darajasi anchayin pasaygan. Misol tariqasida, k-pop sanoatining asosiy belgilari bo'lgan CD, fotokitoblar va albomlar ishlab chiqarish uchun 200 dan ortiq mahalliy kompaniyalar faoliyat yuritadi.[11] Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiyotda nafaqat bo'sh ish o'rni yaratiladi, balki davlatda tadbirkorlik ham rivojlanadi.

Yil	Albom sotuvi(mln)	Daromad	Turizmga ta'sir (mln sayyoh)
2020	45	\$400 M	2.5 (pandemiya tufayli)
2021	60	\$700 M	3.1
2022	80	\$900 M	4.5
2023	120	\$1.1 B+	5 +

Jadval [12]

• Albomlarning butun dunyo davlatlariga sotilishi natijasida Koreyaning pochta va yetkazib berish tizimi ham katta foyda oladi.

• Janubiy Koreya hududidagi k-pop sanoatining kompaniyalari katta miqdorda soliq to'lashadi va bu ham iqtisodiyotga sezilarli darajada foyda olib keladi. Bunga misol qilib HYBE korporatsiyasi (BTS kompaniyasi) ning 2022-yilda \$1.2 mlrd daromad olib, davlatga \$150 mln dan ortiq qismini soliq uchun ajratgan.[13]

Weaknesses (Zaif tomonlari) :

• Yuqorida aytib o'tilganidek, K-pop davlat iqtisodiyotiga asosiy foyda olib keluvchi soha hisoblanib, davlat bu sohani rivojlantirish uchun katta miqdorda investitsiyalar kiritadi va bu qishloq xo'jaligi, an'anaviy sanoat kabi boshqa sohalarning chetda qolib ketishiga olib keladi.

• Davlatga tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi K-pop yo'nalishiga qiziqqanligi sababli sayyohlar faqatgina K-popga bog'liq bo'lgan joylar (HYBE Insight, SM Town) ga borishni xohlashadi. Bu Janubiy Koreya xalqining ming yillik tarixi aks etgan me'moriy-tarixiy yodgorliklari joylashgan qadamjolarga e'tibor kamayishiga olib kelmoqda.

Opportunities (Imkoniyatlar)

- XXI asr texnika- texnologiyalar rivojlangan zamonda K-pop sanoati o'z infratuzilmasini raqamlashtirish orqali misli ko'rilmagan cho'qqiga chiqish imkoniyatiga ega va bu xususida turli izlanishlar olib bormoqda. Yaqin yillarda K-pop guruhlari o'z konsertlarini virtual tarzda o'tkazish orqali yangi daromad manbalarini yaratishi mumkin.

- Hozirgi kunda k-pop sanoati vakillari o'z mashhurligidan oqilona foydalangan holda Hollywood, moda (Louis Vuitton, Dior) va turli o'yinlar (PUBG, League of Legends) bilan hamkorlik qilish orqali yangi bozorlarga kirishi mumkin.

Threats (Xavf-xatar):

- Bugungi kunda Janubiy Koreya iqtisodiyoti va turizmining asosiy manbasi K-pop hisoblandi. Kelajakda K-pop ga bo'lgan global qiziqishning pasayishi Koreyaning ko'plab iqtisodiy va turizmga oid sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- "Big 4" (HYBE, SM, YG, JYP) kabi yirik kompaniyalar bozorning 80% dan ortig'ini nazorat qiladi, bu yangi ijodkorlar va kichik kompaniyalar uchun raqobatni qiyinlashtiradi. Agar ushbu kompaniyalar biror inqirozga duch kelsa (masalan, BTSning harbiy xizmatga ketishi HYBE aksiyalarini pasaytirgani kabi), bu Koreya iqtisodiyotiga zarba bo'lishi mumkin.

- K-pop rivojlangani sari Janubiy Koreyaga tashrif buyurayotgan turistlar soni ham ortib borar ekan, bu davlatga turli holatlarga sabab bo'luvchi turli xildagi viruslarning tarqalishiga ham olib keladi. COVID-19 pandemiyasi davridagi kontsertlarning bekor qilinishi turizm va albom savdolariga qattiq ta'sir ko'rsatgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Yuqorida tahlil qilingan SWOT analizi shuni ko'rsatadiki, K-pop bir nechta xavf-xatarlarga qaramasdan, Janubiy Koreya iqtisodiyotiga va turizmiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida bu sohani yanada rivojlantirish uchun bir qancha takliflar keltirilgan:

K-pop sanoati musiqiy chiqishlarini kichik-kichik shaharlarda ham tashkil qilsa, bu turizmining nafaqat katta shaharlarda balki shahar chekkalarida hamtarqalishini tas'minlaydi. Bu esa barcha iqtisodiy foyda olish mumkin bo'lgan imkoniyatlardan foydalanishga olib keladi.

Ayni damda Yer sayyoramiz ifloslanib ketayotgan bir vaqtda k-pop sanoatining asosiy daromad manbai bo'lgan albom ishlab chiqarish jarayonida atrof -muhitga zarar yetkazmaydigan manbalardan foydalanish nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bundan tashqari albom materiallarini qayta tiklanadigan xom-ashyolardan yasalsa va aholi orasida chiqindilarni qayta topshirish ko'nikmasini rivojlantirilsa eski albomlardan yangi albomlar yaratilar va qimmatli resurslar isrof qilinmas edi. Ushbu oddiy jarayon ham iqtisodiyotga foyda olib keladi.

XULOSA

K-pop musiqiy oqim bo'libgina qolmasdan Janubiy Koreyaning global madaniy kuchi va iqtisodiyotida ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu soha mamlakat YaIM (Yalpi Ichki Mahsulot) hajmini anchagina oshirish bilan cheklanib qolmasdan uning turizm sohasini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, K-pop Koreya to'lqini (Hallyu) orqali "yumshoq kush" ta'sirini kuchaytiradi. Yuqorida tahlil qilingan SWOT analizi shuni ko'rsatadiki, K-pop sanoatining Janubiy Koreya iqtisodiyoti va turizmiga ta'siri o'zining bir nechta zaif tomonlariga ega bo'lishiga qaramasdan, uning kuchli tomonlari davlat iqtisodiyoti va turizmining global ravishda tarqalishiga asos bo'la oladi. Shuningdek, Koreya hukumati K-popni boshqa madaniy va iqtisodiy sohalar bilan muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqishi kerak. Xulosa qilib aytganda, K-pop Janubiy Koreyaning "yumshoq kuchi" sifatida uning global ta'sirini kuchaytirishda davom etadi, ammo bu muvaffaqiyatni uzoq muddatli saqlab qolish uchun sanoat barqarorlik va

diversifikatsiya tamoyillariga amal qilishi shart.

REFERENCES

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/K-pop>
2. <https://www.bloomberg.com/europe>
3. <https://www.kocca.kr/en/main.do>
4. <https://knto.or.kr/eng/index>
5. Park, J. (2023) 'From Cultural Export to Economic Engine: Examining the Role of K-Pop in the Growth of the South Korean Economy', Open Journal of Business and Management, 11, pp. 2198–2214. doi: [10.4236/ojbm.2023.115121](https://doi.org/10.4236/ojbm.2023.115121).
6. Messerlin, P.A. and Shin, W. (2016) The K-pop Success: How Big and Why So Fast? . Sciences Po Paris and Kyung-Hee University.
7. Oh, I. and Lee, H.-J. (2014) 'K-pop in Korea: How the Pop Music Industry Is Changing a Post-Developmental Society', Cross-Currents: East Asian History and Culture Review, 3(1), pp. 72–93. doi: [10.1353/ach.2014.0007](https://doi.org/10.1353/ach.2014.0007).
8. <https://www.kocca.kr/en/main.do>
9. <https://www.customs.go.kr/english/cm/cntnts/cntntsView.do?mi=8042&cntntsId=2724>
10. <https://knto.or.kr/eng/index>
11. <https://www.mcst.go.kr/kor/main.jsp>
12. <https://go.euromonitor.com/White-Paper-K-Pop-Strategies-For-Business.html>
13. https://hybecorp.com/eng/ir/ir_material.do